
TUMAN HOKIMI HUDUDLARDA

Tuman hokimi, 1-sektor rahbari I.Novikov bugun Qizilariq mahalla fuqarolar yig'ini hududidagi 1-umumta'lim maktabida "Yangi O'zbekiston yangicha dunyo qarash" shiori ostida o'tkazilgan targ'ibot tadbirida ishtirok etdi. Tuman rahbari davlatimiz rahbari tomonidan olib borilayotgan odilona siyosat hamda yurtimizda olib borilayotgan bunyodkorlik ishlari yuzasidan keng jamoatchilikka ma'ruza qildi.



Shuningdek, tuman hokimi 1-sektor shtabida “Ayollar daftari” va “Yoshlar daftari”ga ro‘yxatga olish yuzasidan sektor hududida olib borilayotgan xatlov jarayonlari bilan ham tanishdi. Xatlov jarayonini belgilangan muddatda yakunlash yuzasidan mas'ul rahbarlarga tegishli topshiriqlar berildi.



Sarmozor mahalla fuqarolar yig'ini hududida joylashgan sanoat korxonalari va Solijonobod mahalla fuqarolar yig'ini hududida yangi ishga tushirilgan quyunchilik korporatsiyasi faoliyatlari bilan tanishgan tuman hokimi, tadbirkorlarga faoliyatlarini kengaytirish, bo'sh turgan joylardan samarali foydalanish hamda yangi ish o'rinlari tashkil etish yuzasidan tegishli takliflarini berdi.



Tuman hokimi Do'rmon mahalla fuqarolar yig'ini hududida joylashgan "Kelachi buvo" qabiristonida amalga oshirilayotgan qurilish, ta'mirlash va obodonlashtirish ishlari bilan tanishdi. Mutasaddi rahbarlarga qurilish ishlarini sifatli yakunlash hamda hudud obodonligini ta'minlash yuzasidan tegishli topshiriqlar berildi.



Shuningdek, tuman "Texmashservis" mas'uliyati cheklangan jamiyatida bo'lib, qishloq xo'jaligi texnikalarini ta'mirlash ishlarini tizimli tashkil etish yuzasidan mas'ul rahbarlarga tegishli topshiriqlar berildi.

Qo'shtepa tumani hokimligi Axborot xizmati.

2020-11-14 18:32:19